

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MASALALAR VA ARIFMETIK MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH

Ashurova Go'zalxon Komil qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich

Annotatsiya: Ushbu maqolada “masala” so'zining ma'nosi, masala turlari, matematik masala nima ekanligi, matematik masalaning komponentlari va ular oldiga qo'yilgan talablar, matematik masala turlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: masala, matematik masala, masala yechish, arifmetik masala, masala matni, sonli faktlar, masala sharti, turlari

Masala arab tilidan olingan bo'lib, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

- Muhokama;
- Munozara;
- Hal etilishi lozim bo'lgan narsa, ish, vazifa, muammo;
- Bahs, munozara, muhokama va hokazo.

Masalaning quyidagi turlari mavjud:

- ✓ Hayotiy;
- ✓ Kimyoviy;
- ✓ Biologik;
- ✓ Matematik;
- ✓ Kibernetik...

Matematik masala-ixcham hikoya bo'lib, unda ba'zi kattaliklarning qiymatlari kiritilgan bo'lib, ularga bog'liq va masala shartida ular bilan ma'lum munosabatlar orqali bog'langan boshqa kattaliklarning qiymatlari izlanadi.

Masala yechish- matematik nazariyani amaliyotda qo'llash jarayoni desak bo'ladi. Masalalar o'rgatish matematika o'rgatish jarayoning muhim qismi hisoblanadi. Shu sababdan ham, darslikda berilgan topshiriqlarning aksariyat qismi-masala.

Arifmetik masalalarning ahamiyati:

Masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitni chuqurroq anglashga, bolalar tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarda

umuminsoniy fazilatlar shakllanishida katta hissa qo'shadi. Eng asosiysi masala yechish orqali o'quvchi to'rttala arifmetik amallarni va uning xossalarini puxta o'rganadi. O'quvchining matematik tili rivojlanadi. Masala nazariya bilan amaliyotni bog'laydi. Arifmetik masala turmushda sonlar bilan bog'langan hayotiy vaziyatlar natijasi.

Masala-bu so'zlar bilan ifodalangan savol bo'lib, uning javobi arifmetik amallar yordamida olinishi mumkin. Har bir masala quyidgi tarkibdan iborat:

- ✧ Masala matni;
- ✧ Masala sharti;
- ✧ Masala savoli.

Masala sharti- syujetning so'zlar bayoni bo'lib, unda son qiymatlar, masala tarkibiga kiruvchi kattaliklar orasidagi bog'lanish sonlar yoki so'zlar yordamida ko'rsatilgan bo'ladi.

Masala savoli-bunda bir yoki bir necha kattaliklarning noma'lum qiymatlarini topish taklif qilinadi.

Har qanday masala uch komponentdan iborat bo'ladi:

- ❖ Masala matni
- ❖ Masaladagi sonli faktlar
- ❖ Masalaning savoli.

Masala matni oldiga qo'yilgan talablar:

- ✓ Matn ixcham, ravon tilda bayon qilingan bo'lishi kerak;
- ✓ O'quvchining yosh xususiyatlari hamda bilim saviyasiga mos bo'lishi kerak;
- ✓ Tushunarli bo'lishi zarur;
- ✓ Hayotiy voqelikni ifoda etishi kerak.

Masaladagi sonli faktlarga qo'yilgan talablar:

- Hayotiy, taraqqiyot dinamikamizni ochib beruvchi bo'lishi kerak;
- Mantiqan to'g'ri tanlangan;
- Imkoniyat chegarasidan chiqmagan bo'lishi kerak.

Har qanday matnli masalani yechish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Masalani o'zlashtirish va uning dastlabki tahlili
2. Yechimni izlash, yechim rejasini tuzish
3. Yechimni bajarish va masala savoliga javob berish
4. Masalada tavsiflangan vaziyatni grafik modellar orqali ko'rsatib berish.

Matematik masalalar sodda va tarkibli (murakkab) masalalarga ajratiladi. Bitta amal bilan yechilishi mumkin bo'lgan masalalar sodda masalalar deyiladi. Bir necha sodda masalalardan tuzilgan va shu sababli ikki yoki undan ortiq amal bilan yechiladigan masalalar tarkibli (murakkab) masalalar deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. "Turon-Iqbol" 2016 yil.
2. Tadjiyeva Z.G., Abdullayeva B.S., Jumayev M.E., Sidelnikova R.I., Sadikova A.V. Metodika prepodavaniya matematiki.-T. "Turon-Iqbol" 2011.
3. Saidova M, Dilova N, Abdullayeva B, " Ta'limda multimedia texnologiyalardan foydalanish". Toshkent "O'qituvchi" 2021 yil.
4. Saidaova G, Yusufzoda Sh, Yarashov M, " Matematika o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar" Buxoro «Durdon» nashriyoti-2021 yil.
5. Hakimova M, "Matematika o'qitish metodikasi" Buxoro «Durdon» nashriyoti-2021 yil.
6. F.M.Qosimov, M.J.Saidova, G.E.Saidova "O'quv-metodik majmua"